



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 21-mart, payshanba,

35-36 (23.912-23.913)-son

**KUN
HIKMATI**
Topadigan eng
qimmat va qadri
narsamiz mehr-
muhabbatdir

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

Prezident qaroriga ko'ra

Keyingi to'rt yilda aholi va qishloq xo'jaligi ro'yxatga olinadi

Joriy yil 4-mart kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingdi. Unga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar BMTning rasmiy statistika sifatini ta'minlash bo'yicha bazaviy prinsiplari milliy statistika tizimiga joriy etilishini ta'minlash maqsad qilingan. Ya'ni, endi rasmiy axborotlarni tayyorlovchilar tomonidan tarqatilgan statistika ma'lumotlari ularni ishlab chiqishning namunaviy modeli (GSBPM) asosida shakllantiriladi.

BMT tomonidan tavsiya etilgan sifatni boshqarish bo'yicha qo'llanmalarni to'liq joriy etish doirasida zarur tashkiliy choralar ko'rildi. Bunda rasmiy statistikaning tayyorlovchilarning har birida rasmiy statistikada sifat va tarqatish siyosatlarini ishlab chiqiladi. BMT tomonidan ma'qullangan qo'llanma (NQAF) asosida Milliy sifatni boshqarish qo'llanmasi ishlab chiqiladi. Milliy statistika tizimini global baholashdan o'tkazish tashkil etiladi va natijalari e'lon qilinadi.

2025-yil 1-yarvardan statistika kuzatuvlarini amalga oshirish jarayoniga konsalting kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari jaib etiladi.

2024-yil yakuniga qadar "Statistika" integralashgan axborot tizimi va "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi o'ttasida elektron ma'lumotlar almashinuvni yo'lg'a qo'yiladi.

Qarorga ko'ra, O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish 2025-2026-yillarda amalga oshiriladi. Statistika agentligi 2024-yilda aholini ro'yxatga olishining keng ommasiga tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlardan foydalanish uchun videorolik, banner va bukletlar tayyorlaydi. 2021-yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalarini asosida aholini ro'yxatga olish savolnomalari shakllarini takomillashtiradi. Xalqaro tajriba va ekspertlarning tavsiyalari asosida "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi takomillashtiriladi. "STATA" amaliy dasturiy paketi litsenziyasini xarid qilish va unda ro'yxatga olish natijalarining chiquvchi jadvallari namunalarini shakllantirish belgilandi.

Qaror bilan 2024-2025-yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirishga doir uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlarni tashkil etish, ko'zda tutilgan qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish ishlari 2027-2028-yillarda amalga oshiriladi.

**Fazlulloh ESHONQULOV,
viloyat statistika boshqarmasi axborot
xizmati rahbari.**



OLAM NURGA TO'L SIN SEN BILAN, NAVRO'Z!

Viloyatimizning asosiy bayram tantanalari Samarkand shahrining ikki hududida tashkil etildi.

ODATDAGIDAN BOSHQACHA

19-mart kuni shaharning Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i va uning atrofidagi ko'cha hamda xiyobonlar erta tongdan mahalliy aholi va mehmonlar bilan gavjum bo'ldi. Ularni bog'ning asosiy kirish qismida qo'llari ko'ksida bo'lgan milliy libosdagini samargandlik yoshlar qarshi oldi. Bog' ichida esa har bir mehmonni viloyat tibbiyot va ta'lim muassasalarini, korxonani hamda tashkilotlarni vakillari tomonidan bahorha mos bezatilgan sahnalarida bir-birdan qiziqarli ko'rgazmalar va badiiy chiqishlar kutib turardi.

- Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, shahar va tuman bo'limlari uchun bog'ning asosiy kirish davozasi atrofidan joy ajratilgan edi, - deydi Samarqand shahri Halifa Ibrohim mahallasi yoshlar yetakchisi Dilafro'z Qo'shoqova. - Bog'ga kirib kelayotgan har bir ishtiroychini yoshlarimiz milliy o'yinlar namoyishi, o'lan va laparlar, kelin salomlar bilan kutib turardi.

BAHOR TAOMLARI TARQATILDI
Bu yilgi Navro'z bayrami Ramazon oyiga to'g'ri keldi. Yangilanish va yasharish ayyomini esa bahor taomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramona bezatilgan dasturxonaga qo'l uzatish noqulayligini his etgan tadbir tashkilotchilari mehmonlarni bahor taomlaridan bahramad qilishning imkonini topibdi. Holva, nisholda, halim, sumalak va boshqa bahor tomolari maxsus idishlarga solinib, iftorlik uchun ularshildi.

- Markaziy istirohat bog'ining asosiy darvozasidan kirish qismida biz uchun joy ajratildi, - deydi viloyat maxsus bolalar sihatgohi bosh shifokori Jamila Ravshanova. - Jamoamiz tomonidan tayyorlangan sumalakni tadbir ishtiroychilariga tarqatypmiz.

Navro'z bayrami tantanalarida ishtirok etayotgan xorijilik mehmonlarning safi yildan-yilga kengayib boryapti. Bu galgi bayram tomoshalari davomida har qadamda chet ellik sayyoqlarni uchratish mumkin edi. Ular qadriyatlarni aks etgan har bir ko'rgazma va badiiy chiqishni katta qiziqish bilan tomosha qildi. Ularga hamrohlik qilayotgan gid-tarjimontarning ishi oson kechdi. Sababi, mezonlar orasida chet tillarda erkin suhbat quradigan yoshlar talaygina edi. Bir sahna yonida amerikalik professor mahalliy aholi bilan o'zbek tilida suhbatlashib, ularga tabrik so'zlarini yo'llab turgani ko'philikning e'tiborini tortdi.

- Bunday 10-15 yil igari Toshkentda o'qiganman, - deydi u. - O'sha paytda o'zbek tilini o'rganganman. Yaqinda Samarqand xalqaro texnologiya universitetiga ishga kirdim. Bu qadimiy shaharda o'tkaziladigan Navro'z bayrami tadbirlarida birinchi marta ishtirok etishim. Tadbirda oila a'zolarim bilan birga qatnashyapman.

"Mo'jiza" amfiteatrida taniqli san'atkorlar ishtiroykida konsert dasturi namoyish etildi.

NAVRO'Z BAYRAMIGA MUNOSIB TUHFА

Viloyatning asosiy bayram tantanalarini Samarcand shahridan oqib o'tuvgi Siyob arig'i bo'yida ham davom etdi. Keyingi paytda mazkur ariq atrofida keng ko'lamli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. Chiqindagi va noqonun qurilishlardan tozalangan hududlar obod qilinib, daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Aholi va sayyoqlarning tabiatdan bahra olib, piyoda va velosipedda harakatlanishi uchun yo'laklar barpo etildi, o'rindiqlar o'rnatildi.

- Bir paytalar Siyob arig'i bo'yicha qarovsiz, kechalari zimiston joylar edi, - deydi Obirahmat mahallasi yashovchi Nasiba Sayfiyeva. - Yaxshilarning tash-

abbusi bilan hudud qisqa vaqtida obod bo'ldi. Bu nafaqat obirahmatliklar, balki butun shahrimiz aholisi uchun Navro'z bayramida munosib tuhfa bo'ldi.

HUDUDDA UZOQ VAQT QOLGING KELADI, AYNIQSA, NAVRO'Z ARAFASIDA...

Ariqning Xo'ja Doniyor majmuasidan akademik Vohid Abdullayev ko'chasiga bo'lgan 2 kilometr hududda Xo'ja Doniyor, Obi rahmat hamda Bog'imaydon mahallasi aholisi, maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini, tadbirkorlar ishtirokida bayram sayli tashkil etildi. Milliy taomlar hamda liboslar ko'rgazmasi, xushovoz xonandalarning chiqishlari, o'quvchi-yoshlarning raqsulari tadbirga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

- Samarcandga o'zbek xalqining milliy urf-odat va an'analari ko'rish kancha keldik, - deydi qozog'istonlik Tatyana Pitrenko. - Sayohatimiz Navro'z bayramiga to'g'ri kelganidan xursandmiz. Qayerga bormaylik, milliy libos kiygan xush kayfiyatagi odamlarni, bahor taomlari bilan bezatilgan bayram dasturxonalarini ko'ryapmiz. Tassurotlarimiz ulkan. Bu yerda ko'proq qolishni o'layapmiz.

QADRIYATLARNI HURMAT QILGAN YOSHLAR KAM BO'LMAIDI

Gala Osiyo mahallasida bayram tadbirlari uch huiddudda tashkil etildi. Siyob kanali bo'yida bo'lib o'tgan sayilda yoshlar ishtiroykida milliy sport o'yinlari o'tkazilib, turli ko'rgazmalar va sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

- Hududimizda har yili Navro'z bayrami munosabati bilan milliy sport o'yinlari o'tkazilib, g'oliblar taqdirlanadi, - deydi Baxtiyor Rahmonov. - Bu an'ana ota-bobolarimizdan meros. Shuning uchun bo'lsa kerak, mahallamidan ko'plab sportchilar yetishib chiqmoqda. Yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat, or-nomus tuyg'usini

shakllantirir ekanmiz, ular hech qachon va hech qayerda kam bo'lmaydi.

Siyob arig'i bo'yida joylashgan Xumo mahallasi tashkil etilgan tadbirlar ham ko'tarinki ruhda o'tdi. Bu yerda atrofdagi 13 mahallada yashovchi aholi va mehmonlar bayramni xush kayfiyatda qarshi oldi. "SAM IT GLOBAL" akademiyasida o'tkazilgan asosiy tadbir doirasida nogironligi bo'lgan fuqarolar va ehtiyojmand oilar farzandlari uchun osh damlandi.

Ikki hududda o'tkazilgan Navro'z tadbirlarida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtiroy etib, aholini bayram bilan tabrikladi. Yoshlar, tadbirkor va hunarmandlar, mahallalar oqsosqollari bilan dildan suhbatlashdi. Siyob arig'i bo'yiga sayyoqlarni ko'proq jaib qilish uchun hududni yanada obod qilish bo'yicha takliflar bildirildi.

* * *

Qo'shrabot tumanida o'tkazilgan bayram tadbirlari ham har yilidan boshqacha bo'ldi. Jo'sh qo'rg'oni va Qirqovul qishlog'i qir-adirlarida tashkil etilgan Navro'z tantanalarida tuman aholisiga va mehmonlarni ishtiroy etdi.

- Yaqinda tashkil etilgan "Zarchashma" folklor dastasi bugun ilk bor katta sahnada o'z chiqishlarini namoyish etdi, - deydi tuman hokimi o'rinosari Xolboy Ko'bayer. - Jamoaning bu chiqishlari har bir tadbir ishtiroychisining, ayniqsa, xorijindan kelgan mehmonlarning e'tiborini tortmay qolmadi. Olis hududda joylashgan tuman aholisi bugungi kun nafasi bilan yashayapti. Har bir sohada yuksalish sari dadil qadamlar tashlanayotganining guvohi bo'lyapmiz.

Navro'z tantanalarini viloyatimizning boshqa shahar va tumanlarida, mahallalarida ko'tarinki kayfiyatda davom etmoqda.

**To'Iqin SIDDIQOV,
Asqar BARATOV,
Fazliddin RO'ZIBOYEV,
Baxtiyor MUSTANOV,
"Zarafshon" muxbirlari.**

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson yettinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyatni to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson yettinchi sessiyasi 2024-yil 28-mart kuni chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quydagi masalalar kiritilsin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan

nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-son qarorining ijrosi yuzasidan viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, 3-sektor rahbari R.Mamatovning hisoboti;

- "O'zbekiston - 2030" strategiyasining ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i K.Shermatovning hisoboti;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagagi "2022-2026-yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilly dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-316-son qarorining

viloyatdagi ijrosi yuzasidan viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i A.O'roqovning hisoboti;

- jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha taqdimot materiallarni ko'rib chiqish va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazishga ruxsat berish to'g'risida;

- xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari hisobotlarini eshitish tartibini tasdiqlash to'g'risida;

- Urgut tumani Nisbot mahallasi, Kattaqo'rg'on tumani Jumaboy mahallasi, Qo'shrabot tumani Chorloq mahallasi, Ishtixon tumani Ko'tarma mahallasi,

Oqdaryo tumani Yangiqo'rg'on mahallasi, Toyloq tumani Jumabozor mahallasi va Paxtachi tumani Hunarmand mahallalarining bosh rejalarini va unga tutash mahallalarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarni tasdiqlash to'g'risida;

- viloyat prokuraturasining 2024-yil 16-fevraldaги 15/24-527-sonli taqdimnomasini ko'rib chiqish to'g'risida.

Viloyat hokimi

E.TURDIMOV

2024-yil 18-mart

Agrar tizimda tub islohotlar boshlanyapti

Joriy yilning 12-fevral kuni Prezidentimiz raisligida agrar sohadagi ustuvor vazifalar, qishloq xo'jaligida yangi zaxiralarni ishga solish hamda 2024-yilgi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Sohada keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida dehqon-fermerlarning manfaatdorligi, daromadi oshib, mahsulot turi ko'paydi, klaster tizimi rivojlanib, yuqori unumli texnika va chiqur qayta ishslash kirib keldi, yangi navlar va agro-tehnologiya ko'paymoqda. Jumladan, o'tgan yili ishlab chiqarish 104,4 foizga oshib, 51,2 trillion so'mni tashkil qildi. Eksport esa qariyb 173 million dollarga yetdi, 72,6 ming gektar bog' va tokzorlar barpo qilingdi. 2023-yil viloyatimizda ilk bor 274 ming tonna paxta, 713 ming tonna g'alla hostisi olindi.

Davlatimiz rahbari yer va suv resurslari cheklangan sharoitda qishloq xo'jaligi mas'ullari mutlaqo yangicha ishlashi zarurligini qayd etdi. Joriy yilda tumanlarga hosildor urug'larni yetkazish, dehqonlarni yangi agroteknologiyalarga o'qtish, paxta va g'alla hosildorligini yanada oshirish muhimligi ko'r-satib o'tildi. Shuningdek, o'g'it tannarxini 15 foiziga kamaytirib, qishloq xo'jaligini 108 ming tonna mineral o'g'it bilan ta'minlash vazifasi qo'yidi. Bu yildan ilk bor chetdan olib kelgingan chigitni ekishiga ruxsat berildi.

Joriy yilda paxtadagi kabi g'allada ham imtiyozli kreditni to'g'ridan-to'g'ri fermerga berish tizimi joriy qilinadi.

Bundan tashqari, davlat resursi uchun xard qilin-gan bug'doyni daladan tashib kelish va saqlash xarajati 2024-yilda ham to'liq budjetdan oqoplanadi.

Yig'ilishda o'g'it sifati va ustamasi bo'yicha ayrim tumanlarda e'tirozlar bo'layotganiga to'xtalib o'tildi. Joylardagi ombordarlar klaster va fermerlarga mineral o'g'itni tashishda transportni logistika portalida majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi bekor qilinadi. Shuningdek, fermerlarga yoqilg'ini o'z vaqtida yetkazib berishda nazoratni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. 7 ta yirik kanalning 2,6 kilometr qismi betonlashga budjetdan 26,7 million so'm ajratilgan. Shuningdek, viloyatimizdag'i 2300 kilometr xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish amalga oshirilmogda.

Prezident hamma kuchni to'liq safarbar qilib, vegetatsiya davri boshlanguncha betonlash ishlarni yakunlash, kanallar atrofida daraxt ekish zarurligini ta'kidladi.

2024-yilgi paxta va g'alla hosil uchun budjetdan imtiyozli resurs ajratilishi belgilandi.

Klaster, fermer va dehqonlari imtiyozli kredit olishni osonlashtirish maqsadida ochiq-oshkora platforma ishga tushdi. Lekin 2024-yil paxtasini sotish bo'yicha fyuchers shartnomasi tuzgan fermerlarning ma'lum qismi kreditlarni haligacha oлmagan. Sababi, ayrim banklar "resurs yo'q, garov ta'minoti kerak", degan bahonalar bilan tayyor mablag'ni bermayapti. Sohada hisob-kitob intizomida ham kamchiliklar borligi aytildi.

Masalan, klasterlarning fermerlar oldidagi qarzdorigi hali to'liq to'lanmagan. Yangi tizimga ko'ra, oldingi qarzini 1-aprelgacha yopmagan klaster bilan fyuchers shartnomasi bekor qilinadi va fermerga paxtani birjada sotishga ruxsat berildi. Ma'lumotni elektron platformaga to'liq kiritgan va fyuchers shartnomasi imzolagan fermerga kredit ko'pi bilan uch kun ichida ajratilishi qolinishi ta'kidlandi.

Bu yil 10,7 ming gektarda tuproq unumdonlrigini oshirish va 25,5 ming gektar yavlovni degradatsiyadan chiqarish bo'yicha yangi dastur amalga oshiriladi.

Joriy yilda bog', tokzor, sabzavot, poliz, ozuqa ekini va issiqxonadan iborat 96,8 ming gektar yerni ham to'liq raqamlashtirishga topshiriq berildi. Shuningdek, ushu yerdarda ekinlar joylashuvni, vegetatsiya jarayoni, hosildorligi, mineral o'g'it sarfi "Agroplatforma"da yuritiladi.

Aholiga bo'lib berilgan yer maydonlari hamda turmoga yerlariga sanoat va kooperatsiyani olib kirib, qishloq xo'jalik bosqichmasi boshlig'i.

mumkinligi qayd etildi. Buning uchun 1 trillion so'm kredit uchun resurs ajratiladi. Ushbu kreditlari kooperatsiya asosida mahsulot yetishtirish, texnika, aylanma mablag' uchun 100 million so'mgacha garovsiz, 150 million so'mgacha garov ta'minoti 50 foizga pasaytirilgan holda beriladi. Shuningdek, texnika fermer va dehqonlarga 10 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan lizingga beriladi. Chetdan olib kelinib, lizingga beriladigan motokultivator va minitraktorlarga bojxona imtiyozi 3 yilga uzaytiriladi.

Issiqxonalarda mahsulot yetishtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha choralar belgilanib, issiqxona xo'jaliklarini kreditlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish topshirildi. Prezident yoqilg'isiz isitiladigan, ixcham issiqxonalarini barpo qilish tajribasini qo'llab-quvvatlab, tayyor holda topshirish sharti bilan 10 sotixli ixcham issiqxonalar qurish vazifasi ni qo'ydi. Ushbu maqsadlarga "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasida 100 million so'mgacha garovsiz kredit beriladi.

Yig'ilishda 25 turdag'i talab eng yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari mamylakatimizda ishlab chiqarishni tashkillashtirish muhimligi ta'kidlandi. Bu bo'yicha 93 milliard so'mlik 11 ta loyiha ishlab chiqilgan. Kelguski ikki yilda 5 ta xalqaro brendni jalb qilib, ishlab chiqarishni yo'iga qo'yish topshirildi. Shuningdek, Jahon bankidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan yangi loyihalarni jalb qilish xarakatining 50 foizi qoplanadi. Bunda, har bir brendga 500 million so'mgacha subsidiya beriladi.

Endilikda qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish bo'yicha imtiyoz milliy valyutada eksport qilgan tadbirkorlarga ham tatbiq qilinishi ma'lum qilindi. Go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida resurslarni yo'naltirilishi belgilandi. Bu mablag' chorva kompleksini tashkil qilish, qoramol olish, omuxta-em chiqarish uchun milliy valyutada 17 foizdan 3 yil imtiyozli davr bilan 10 yilga beriladi. Chorva xo'jaliklarini aylanma mablag' bilan ta'minlashga ham imtiyozli kredit yo'naltiriladi. Ushbu kreditlarning 18 foizdan oshgan qismi Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasidan barcha tadbirkorlarga qoplab beriladi.

Joriy yilda baliq yetishtirish hajmini 31,5 ming tonnaga yetkazish va qo'shimcha 3840 ta aholini band qilish tarmoq mas'ullarining asosiy vazifasi bo'lishi qayd etildi. Daryo bo'yalarida kamida 38 ta havza tashkil qilib, kooperatsiya asosida baliq yetishtirishni yo'iga qo'yish topshirildi. "Olaviy tadbirkorlik" dasturlari doirasida baliq boqish uchun garovsiz kreditni 100 million so'mgacha oshirish taklif qilindi.

Prezident ipakchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, tarmoqda keskin o'zgarish qilish zarurligini ta'kidladi. Vietnam va Xitoy tajribasi asosida pillani sanoat usulida yetishtirish yo'iga qo'yildi, pilla yetishtiruvchilarning moddiy manfaatdorligi oshiriladi. Buning uchun ikki bosqichda bozor tamoyillariga o'tildi.

Birinchi bosqichda bu yil pilla narxi 25 foizga oshiriladi. Aholiga pilla yetishtirish uchun subsidiya beriladi va pilla yetishtiruvchilar daromad solig'idan ozod qilinadi.

Ikkinchi bosqichda esa 2025-yildan narxni davlat belgilashi, klasterlarga tumanlarni birlashtirish, fermer va kasanachilar o'zi yetishtirgan pillani faqat klasterlarga sotishi amalyotidan voz kechiladi. Ya'ni, pilla fermer va klaster o'rtaida erkin narxda tuziladigan shartnomasi yoki birja orqali sotiladi.

Jumladan, ipak qurtini xonadonlarga targatib, o'rma tutzor tashkil etish va uy sharoitida tayyor ipak ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha tizim yaratiladi.

Begzod TUGALOV,
viloyat qishloq xo'jalik bosqarmasi boshlig'i.



undan yuqori ball to'plagan nomzodlarning natijalari 3 oy davomida tizimda saqlanib, boshqa vakant o'rinch uchun tanlovlarda qatnashib, malaka tabaliga to'g'ri kelgan taqdirda, ushu-

bosqichdan automatik o'tishi belgilangan edi. Natijada nomzodlarning ortiqcha ovoragarchiligiga chek qo'yilib, test sinoviga keluvchilarining soni 4 bar-

Yil davomida 125 mingdan ortiq murojaat

Prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalarini bugun bevosita davlat rahbariga murojaat qilish, xalq bilan doimiy muloqot olib kelinib, odamlarni qiyab kelayotgan muammolarni o'z vaqtida samarali hal etishning ta'sirchan mexanizmiga aylandi.

Xalq qabulxonalarini aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda onunni manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan bo'lib, fuqarolar murojaatlar bilan ishslashning eng samarali va tizimli faoliyatini ta'minlashda muhim o'rinn tutmoqda.

Biroq viloyatda aholi murojaatlar bilan ishslash tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosi haqida to'lasincha ijobi fikr bildirib bo'lmaydi. Birgina murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini buzilgan holatlar ko'paygani ham fikrimiz dalib bo'la oladi.

Misol uchun, 2023-yil davomida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalariga viloyatdan 125 mingdan ortiq murojaat tushgan va 2022-yilga nisbatan 18 foizga kamaygan. Biroq Paxtachi (9331 ta), Payariq (11017 ta) va Kattaqo'rg'on shahrida (3454 ta) murojaatlar soni oshangi.

Eng ko'p murojaat Samarqand shahri (19907 ta), Past Darg'om (13687 ta) va Urgut tumanlaridan (10330) kelib tushgan.

Aholi tomonidan berilgan murojaatlarda eng ko'p ko'tarilgan masalalar sud qarorlarini ijar etish, alimmat va qarz undirish (11342 ta), davlat pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya (10090 ta), elektr energiyasi ta'minoti (9205 ta), jinoyat va huquqbazarlilar (9522 ta), gaz ta'minoti (8808 ta), moddiy yordam va horimiylik (7631 ta) bo'yicha bo'lgan.

Tahlillarga ko'ra, o'tgan yil davomida kelib tushgan murojaatlarning 93511 tasi yoki 79,6 foizi qanoatlanrilgan. Shundan 49524 tasi ijobi yechimini

topgan, 7551 tasi ko'rib chiqish jarayonida. Murojaatlarni ijobi hal etish, fuqarolar roziliga erishish darajasi ayniysi, Oqdaryo (37,5 foiz), Bulung'ur (35,4 foiz), Past Darg'om (35,1 foiz) va Jomboy (36,7 foiz) tumanlarida past.

Umuman, viloyat bo'yicha murojaatlar soni 2022-yilga taqqoslanganda 18 foizga kamaygan. Ammo 2023-yilda ko'rib chiqish muddati buzilgan murojaatlar 11541 tani, takroriyalar esa 19067 tani tashkil qilgan.

Bundan tashqari, 2023-yil davomida viloyatda 4393 marta ommayvi sayyor qabullar o'tkazildi. Qabullarda 40582 nafar fuqaroning 41926 ta murojaati ro'yxatga olingan. Ushbu murojaatlarning 24635 tasi, ya'ni 59 foizi ijobi hal etilgan.

Murojaatlarning mazmuni hal etilishi, sifatlari javob xatlar berilishi, masalani ko'rib chiqish muddatlariga riyoa etilishi, muddatlariga amal qilмаганлик holatlar mas'ul shaxslarning tushuntirish xatlarini olish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalalar tuzish hamda ko'rib chiqish uchun sudga yuborish haqida tushuntirish ishlari olib borilishiga qaramasdan, ushu kamchiliklar takrorlanib kelinmoqda.

Qayd etilgan holatlar esa haqli ravishda fuqarolar e'tiroziga sabab bo'lmogda va ularning ommayvi sayyor qabullarda hamda virtual qabulxonalariga qayta-qayta murojaatlar qilishiga sabab bo'lmogda.

Aholi murojaatlari hamda aniqlangan muammo-larga e'tiborsizlik qilib, bu borada qonun buzilishiga yo'l qo'yagan mansabdor shaxslar bo'yicha mahalliy kengashlarga axborot hamda davlat organlari va tashkilotlariiga taqdimnomalar tuzishda qurilishi. Ushbu hujjalatlarning asosida mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rilmoida.

Mamatjon TURDIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri.

Davlatning iqtisodiy faoliyatidan maqsad cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanib, aholining tinimsiz o'sib boruvchi ehtiyojni qondirishdir. Ana shu umumiqtisodiy qonuniyatga riyoa etsila, fuqarolarning turmush farovonligi yaxshilanadi, ularda ertangi kunga ishonch paydo bo'ladi. Xo'sh, farovonlikni qaysi mezonlar asosida o'chaymiz? Hayotimiz yaxshilanib borayotganini qanday bilishimiz mumkin?

Farovonlikni nima bilan o'chaymiz?

Insoniyat o'z tarraqqiyot yo'lda bu mezonlardan ko'pni ishlab chiqqan.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ilmiy asoslangan ratsional iste'mol me'yorlar hujumidan ko'rishi mumkin bo'lgan zararini sug'ortalash yo'iga qo'yilmagan.

Tog' yonbag'rida yashovchi, tirikchiligi chorvachilikdagi bo'lgan odamlarimiz kam, deysizmi? Ular molini nobud qilgan bo'rilarni sudga berib, haqini qaytarib ololmaydi.

Aslida bo'ri ham tabiat zarjirining ajralmasi qismi. Ularni yomon ko'rishga, ovlab, qirib yuborishga haqimiz yo'q. Shunday ekan, ming bir mashaqqat bilan elimizga go'sht yetishtirib berayotgan chorvadorlarning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha birorta boshqa mexanizm ishlab chiqilishi kerak. Toki, ular kasodga uchrab, go'sht bozorida qimmatchilish boshlanmasin.

Qahramon NAMOZOV,
Ishtixon tumani.

yangi tarraqqiyot yo'liga o'tgan davlatning budget imkoniyatlari cheklanganligi, keyinchalik pandemiyasi asoslangan tizimlari berilish darajasi taraflardan etish zaruriyati kerakligi belgilanadi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqa ko'rsatich - "iste'mol savatchasi" mavjud. Aslina olganda, uning negizida ham ratsional me'yorlar yotadi. Faqat "iste'mol savatchasi"ga oziq-ovqat mahsulotlari dan tashqari, nooziq-ovqat mahsulotlari va ayrim xizmat turlari kiritiladi. Misol uchun, Germaniyaning "iste'mol savatchasi" 500 ga yaqin, AQShni 300 ta tovar va xizmatlarni qamrab olgan.

O'zbekiston bozor iqtisodiyoti o'tish davrida ekanligini inobatga olsak, biz AQSh, Fransiya yoki Buyuk Britaniyaga o'xshash rivojlangan mamlakatlardagi amalyotga o'tishimiz qiyin. Demak, ishni dunyoning asosiy rivojlanayotgan davlatlarida qo'llanigan uslubidan boshlashimiz mumkin. Gap "yashash minimumi" haqida bormoqda.

To'g'ri, yurtimizda ushu mezonni ishlab chiqish va amalyotga joriy etishga harakatlar bo'ldi. Ammo

Fozil AXATOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi bosh mutaxassis.

Endi nomzod 5 tagacha lavozimiga ariza yubora oladi

Bunda yakuniga yetgan har bir tanlovdan so'ng nomzoda boshqa vakansiya ariza yuborish imkoniyati saqlanib qoladi.

Davlat xizmatini

“OG‘IR HUDUD”da MUAMMOLAR HAM ZALVORLI

Toyoq tumanidagi Tepaqishloq mahallasiga kelganimizda mahalla faollarini ko‘chada, oilalardan birida yuzaga kelgan nizoni muhokama qilayotgan holatda topdik. Ma‘lum bo‘lishicha, ayolning eri vafot etib, u farzandlari bilan ota uyiga qaytib kelgan. Bu yerda esa ukasi uni sig‘dirmayapti. Boshiga ketma-ket musibat tushgan aylor norasida bolalar bilan ko‘chada qoladigan. Uzoq tushuntirish va nasihatlardan keyin uka insofga kirdi.



— Bir oydan beri ko‘chadamiz, tinganimiz yo‘q, - deydi mahalla raiisi Nuriddin Sobirov. — “Mahalla yettiligi” bilan har bir xonadonga kirib, oilalarning sharoiti va muammolarini o‘rganib chiqyapmiz. Tuman, viloyat va hatto respublika idora va tashkilotlari mutaxassislar ham shu yerda. Mahalla kesimida hal qilib bo‘lmaydigan masalalar ularning ko‘magi bilan yechim topyapti. Biz ham bu imkoniyatdan samarali foydalishning harakat qilyapmiz.

Tepaqishloq viloyatimizdagi “og‘ir hudud” tasnifiga kiritilgan 217 ta mahalladan biri hisoblanadi. Yaqinda respublika ishchi guruhni bu yerda bo‘lib, “mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorlikda xonadonbay, fuqarobay ishlashini tashkil qilish bo‘yicha “Toyoq tajribasi”ni yo‘lga qo‘ygan edi. Shuningdek, hududni “og‘ir” toifasidan chiqarish maqsadida 67 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan.

“OBOD JOYDA YASHAGIMIZ KELADI”

Bugun mahalla hududi katta bir qurilish maydoniga aylangan. Har bir ko‘chada ish qizg‘in, eskilarni buzilib, yangisi qurilyapti. Mahalla fuqarolar yig‘inining moslashtirilgan binosi ham shu jumladan. Hozir uning o‘rnida zamonaviy, “mahalla yettiligi”ning har biri uchun alohida xonasi bor bino qurilmoida.



— Yaqin yillarda hududdagi birorta ijtimoiy obyekt ta‘mirlanmagan edi, - deydi N. Sobirov. — Ayanchli holatga kelgan mahalla shifokorlik punkti, loy ko‘chalar, bolalarni sig‘dira olmayot-

gan maktab... Bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. 2023-yilda xalqimiz birlashib, “tashabbusli budjet”da 5300 ta ovoz yig‘di. Ammo boshqa mahallalarda ko‘proq ovoz yig‘ilgani hisobiga yutqazdik. Fuqarolarimiz tushkunlikka tushgan edi. Biroq respublika ishchi guruhining kelishi bilan hududni rojlantrish boshlab yuborildi. Odamlarning kayfiyatni o‘zgarib, biz aytmasak-da, uying atrofini obodonlashtirib, mas‘ullariga ko‘maks beryapti.

Mahalla ko‘chalarini aylandik. Kimdir daraxtarga shakl beryapti, kimdir ariq kovlayotgan bo‘lsa, yana kimdir devorlarini oqlayapti. Yuk mashinalarida keltirilayotgan shag‘al tosh ko‘chalar bo‘ylab yoviyapti. Elektr, suv ta‘minoti korxonalar xodimlari ham shu yerda.

— Bizning ham obod joyda yashagimiz keladi, - deydi farzandlari bilan ariq kovlayotgan E. Aliyev. — Beli bukchaygan 60 yillik simyoq‘ochlar yangisiga almashti, uylarimizga ichimlik suvi kiryapti. Shu vaqtgacha arteziani bor 5-6 ta xonadondon suv tashish ichganmiz. Albatta, bu vaziyatda biz tomoshabin bo‘lib tura olmaymiz.

“Yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, mahalla ko‘chalarining 7 kilometri asfaltlanishi, 16 kilometri shag‘allanishi belgilangan. Ijtimoiy soha obyektlariga olib boradigan yo‘l yoqasida 2,6 kilometr piyodalar yo‘lakchasi qurilib, 50 dona tungi

o‘rinli inshoot joriy yilning sentabr oyida foydalanishga topshirilishi belgilangan.

MARDIKOR BOZORGA CHIQILMAYDI

Aholi bilan suhbat chog‘ida aksariyat odamlar hududda bo‘sh yer va ish topish muammo ekanligini, shu sababli ko‘phchilik mardikor bozoriga chiqishini aytdi. Haqiqatan, mahallani aylanlar ekanmiz, aholi juda zich yashashini, shunday bo‘lsa-da, yerining har bir qarichidan unumli foydalishning harakat qilayotganini ko‘rdik. Mahallaning drayveri ham shunga mos – sabzavotchilik va chorvachilik. Hokim yordamchisi Farrux Mirzayevga ko‘ra, joriy yil mahallada 122 nafar ishsiz fuqaro hisobga olingan. Ularning 50 nafrasi vaqtinchalik haq to‘ladanidan jamaot ishlariga jaib qilingan.

Hududda issiqxonachilik rivojlangan. Aholining bandligini ta‘minlash maqsadida ajratilayotgan kreditning asosiy qismi shu yo‘nalishga qaratilgan. Jumladan, fuqaro Buyund Hamroyev fermerning auksionga qo‘yilgan 60 sotix yerini yutib olib, hokim yordamchisi tavsiyasi asosida olgan 33 million so‘m kreditga issiqxona qurgan.

— O‘tgan yili yerining 30 sotixiga qurilgan issiqxonaga sabzi ekip, 80 million so‘mga sotdim, - deydi B. Hamroyev. — Ikkilamchi ekinlardan ko‘rgan daromadimni qo‘shib hisoblasak, 130 million so‘m atrofida bo‘ladi. Shu pulga qolgan 30 sotix yerga ham issiqxona qurdim, kreditimni to‘layapman. Nasib bo‘lsa, bu hisosha foydaga chiqamiz. Hozir issiqxonalarimda butun oila namandagi bandligi ta‘minlangan. Mavsum vaqtida hasharchilarni jaib qilamiz.

Hokim yordamchisining bildirishicha, u hudудi sanoatlashtirish harakatida. Ayni maqsadda ishsiz aholini kasbga o‘qitish, kasanachilik va tadbirkorlikka jaib qilish choralar ko‘rilyapti.

Mahallani “Og‘ir hudud” toifasidan chiqarish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi boshlangan. Hali qilingan ishlar samarasi haqida gapirishga erta, albatsha. Shu bois biz jarayonni kuzatishda davom etamiz.

**Asqar BAROTOV,
“Zarafshon” muxbirasi**

yoritish chiroqlari o‘rnataladi. Shuningdek, eski muktab va mahalla tibbiyot punkti ta‘mirlanib, zarur jihozlar bilan ta‘minlanadi. Aholi esa ko‘proq bolalar bog‘chasi qurilishidan xursand. 120

yoritish chiroqlari o‘rnataladi. Shuningdek, eski muktab va mahalla tibbiyot punkti ta‘mirlanib, zarur jihozlar bilan ta‘minlanadi. Aholi esa ko‘proq bolalar bog‘chasi qurilishidan xursand. 120

ta‘kidlaganimday, mahallamiz drayveri qandolatchilik bo‘lgani uchun shu yo‘nalishda daromad topayotgarlar soni ko‘proq.

— Korxonamizda

50 ga yaqin xotin-qiz ishlaydi, - deydi mahallada joylashgan «Shamsiddin Bibixonim» korxonasi mas‘ul xodimi Zamira Kazakova. — O‘n turdagagi qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqaramiz, pishirilqarimizning ba‘zi turlariga patentimiz ham bor. Ishlab chiqarish

ishonch va ishtiyoqni kuzatmagandim. Ilgari odamlar bigza muammosini aytilib, muroja qilganda, ba‘zi holatlarda o‘zimiz ham nima qilishni bilsamidik. Chunki rahbarlarning oldiga kirish muammo edi. Bugun rahbarlarning o‘zi mahalla ahli bilan uchrashib, amalga oshirayotgan ishlari haqida hisobot beryapti. Ko‘phchilik buni oddiy voqeа sifatida aytilib o‘tadi. Ammo bu juda katta ish.

Aniq ishi, daromadi bor oilada xotirjamli bo‘ladi, obodlik ham ko‘ngliga sig‘adi. Yuqorida

mavsumi yuqori payti yuzdan ziyyot xotin-qiz shartnomasi bilan mehnat qildi. Bir kunda o‘n tonnaga cha mahsulot chiqaramiz, juda katta qismi boshqa viloyatlarga, ko‘proq Xorazm viloyatiga yetkaziladi. Korxonamiz 2009-yilda tashkil etilgan, unda ishlovlilarining asosiy qismi shu mahalla yoshlari, xotin-qizlari sanaladi. Ko‘phchiligi bu yerda o‘rganiganlar bo‘yicha keyin uylarida o‘zlarini tashkil qilishadi.

— Ba‘zilar ko‘p qavatlari uylarda yashovchi aholi bilan ishlash biroz murakkab, ayniqsa, o‘sha hudud-

Mahallangizing pulsi qanday?



Ertalab uydan chiqayotgan paytim mahalla faollari xonadonma-xonadon yurib, uy raqami va ko‘cha nomi tushirilgan lavhlarni tarqatib, darvozalarga ildirib yurganiga guvoh bo‘ldi. Bepul emas, ozroq to‘lovi bor. Ammo yan-gilik-da. Birdan xayolingizda uyingiz, hovlin-giza ham o‘zgarish qilish kerakligi haqida o‘ylaysiz. Qishi bilan namiqbol qolgan de-vorlarning u yer bu yerini suvash, daraxtlarga ishlov berish, yangi gul ko‘chatlari keltirish...

Shu xayollar bilan o‘sma kuni reja qilingan xizmat safarim, Kattaqo‘rg‘on shahriga yo‘l olaman. Shahardagi Qo‘shovuz mahallasi faollari ham bahorgi yumushlarga kirishib ketgan ekan. Obodonlashtirish, daraxt ekish, atrof-hududni tozalash...

- Bu yil bir tashabbusimizni aholiga aytilib, targ‘ib qilib chiqyapmiz, - deydi Kattaqo‘rg‘on shahridagi Qo‘shovuz mahallasi fuqarolar yig‘ini raisi Sabot Nigmatova. — Har bir xonadon darvozasi yoniga bog‘gul, ya‘ni atirgul eksityapmiz, kam ta‘minlangan oilalarga o‘zimiz sotib olib beryapmiz. Bilasiz, atirgul inson kayfiyatiga ham, salomatlighiga ham ijobji ta‘sir etadigan o’simlik. Shuningdek, hozircha mahalla-da 600 tutga yaqin daraxt ko‘chatlari ekildi va bu ish davom etmoqda. Aholi uylarini oqlash, ta‘mirlash bo‘yicha ishlari olib borilayapti. Bir uy obodligiga e’tibor qaratasa, shu holatning o‘zi o‘nta xonadonga o‘rnak bo‘ladi, qo‘shnisi ham uyalganidan uyini tartibga keltira boshlaydi.

Qisqa vaqt ichida mahallamizda ijobji o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tashabbusli budgetdan 400 million so‘m yutib olinanidandan so‘ng o‘tgan asrning 70-yilidagi beri suv bo‘ligan Alisher Navoiy ko‘chasidagi

Ishtixon tumani markazidan 17 kilometr uzoqlikda joylashgan Qiyot mahallasi 9 ta qishloqni o‘z ichiga oladi. Ko‘p yillar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan ushu mahallaning muammolarini o‘rganar ekansiz, ular zanjir kabi bir-biriga ulanib ketganiga guvoh bo‘lasiz. Bugun o‘sha zanjirlar uzilmoqda. Mahallada “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari joriy etilyapti.

QIYOT | YANGI QIYOFAGA KIRADI



Mahallani “og‘ir hudud” toifasidan chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, joriy yil hududda yangi mahalla fuqarolar yig‘ini binosi qurilishi, 3 ta umumta‘lim maktabi va 2 ta sport maydonchasi joriy ta‘mirlanishi, 5 ta qabriston obodonlashtirilishi, qishloq vrachlik punkti binosi kapital ta‘mirlanib, 9 ta workout inshoot qurilishi rejalashtirilgan. Hozir aytilib o‘tilgan barcha yo‘nalishlarda ish boshlangan, shuningdek, 13,2 kilometr ichki yo‘llar shag‘allastirilib, 1,1 kilometr masofada piyodalar yo‘lakchasi qurish ishlari olib borilmoqda.

— Fuqarolarimizning 85 foizi maysumi ishlar orqali daromad qilar edi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Zayniddin Egamov. — Tadbirkorlikni rivojlantraylik de-sak, hududda elektr ta‘minoti juda yomon, gaz ham muammo. Infratuzilmaning yo‘ligi qo‘limizni bog‘lab qo‘ygan edi. Bu yildan barchasi o‘zgaryapti. Tez orada aholining turmush darajasini yaxshilash uchun zarur sharoit bo‘ladi.

“Yo‘l xaritasi”da belgilangan manzilli vazifalaridan kelib chiqib, o‘tgan vaqtida mahallada 5 ta yangi transformator punkti o‘rnataldi, mavjud 9 tasi ta‘mirlandi. Eski simyoq‘ochlar o‘rniga 3400 dona temir-beton ustun keltirilib, shundan 300 ga yaqini o‘rnataldi. Shuningdek, 3,3 kilometr gaz tarmoq‘i ta‘mirlanib, gaz tortibmoqda.

— Mahallaning kam ta‘minlangan fuqarolariga ko‘mak berish masalasi ham e’tiboridan chetda qolgan yo‘q, - deydi Qiyot mahallasi raisi Tolib Norqulov. — Jumladan, hozir 12 ta ehtiyojmand oilaning xonadoni kapital ta‘mirlanayotgan bo‘lsa, 1 oliga yangi uy-joy qurilmoqda. Bu g‘amxo‘rlik va



G‘o‘bdin tog‘i etagidagi Bog‘bon mahallasi hududda “Dacha” nomi bilan elga tanilgan qishloq bor. Eski va yangi Bot-bot qishloqlari o‘tasidagi ochiq maydonda o‘tgan asrning saksoninchı yillarida “Toshkent” davlat xo‘jaligi markazi uchun 10 ta 2 qavat va 70 ta bir qavatlari uy-joy qurildi. Hozir yerdan 100 dan ortiq xonadan bo‘r. Dacha qishlog‘i aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

Fermer dalasidagi ekinning barav rivojidan xursand bo‘lsa, cho‘pon 70 bosh qo‘yi bu yil 100 boshga yetganidan mamnun. Yana “O’n nafr yoshga bir nuroni” tashabbusi Dacha qishlog‘ida ham o‘z ifodasini topmoqda.

— Har hafta shanba kuni qishlog‘imiz yoshlari bilan uchrashib, ularning kelajagi, bugungi ishlari, kasb tanlashlari haqida suhbatlashib, kerakli maslahatlarni beramiz, - deydi 75 yoshli Eshpo‘lat hoji Hamroyev. — Axix niholni ham yosh paytida yaqshii parvarishlasang, u to‘g‘ri o‘sadi. Biz keksalar maslahat va tajribalarimiz bilan yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsak, tarbiyaga chaqisak, ular ham ertaga o‘z xizmati bilan Vatanga shuni qaytaradi.

Qishlog‘ yoshlari vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun 19-maktabda Rabbim Tashanov murabbiyligida sportning yunon-rum kurashi bilan shug‘ullanadi.

Rabbim HOTAMOV o‘lga suratlar.

ning tozaligi masalasi qiyin, degan xayolga borishadi, - deydi Amir Temur mahallasi xotin-qizlar faoli Madina Ismatova. — Ammo biz bu masalani yuboshish orqali hal etganimiz. Mahallamizdagi 32 ta ko‘p qavatlari uyming har birida asosan fidoyi, hushyor, talabchan, tozalikni qadrlyaydigani, ayollar ubaybosha etib saylangan. Hashar deymizmi, atrofning obodligi masalasidami ularning bemmennat xizmati bor. Ular hato oilalardagi muhitning sog‘lom bo‘lishiga ham yordam berishadi. O‘tgan yili mahallamizda 26 oilaning yarashganida ham ularning xizmati katta. Jinoyatchilikka moyil yoshlar, notinch oilalarga alohida e’tibor qaratamiz, ularni tadbirkorlarga birkirtilish amaliyoti yo‘lga qo‘yligan. Ishli, hunarli bo‘lgach, ularda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilaydi.

Mahallamizning drayveri servis xizmat ko‘rsatish bo‘lgani uchun bu yerda 20 dan ortiq xizmat ko‘rsatish shoxobchasi bor. Ikki yil avval 50 ta bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari soni bugun 90 ga yaqinlashib goldi. Mahallamiz qiyofasini keyingi 2-3 yilda shunchalik o‘zgarib ketdi, bu oilanarning tashabuskorligi, ishtiyoqiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Bahorning ilk kunlarida, yasharish, yangilanish faslida kattaqo‘rg‘onliklarning qanday nafas olayotgani, obodlikdagisi ibrati haqida yozmoqchi edik. Chunki yuqorida nomlari keltirilgan mahallalar bugun Kattaqo‘rg‘on shahridagi eng obod maskanlar safida. Ammo obodlik faqat atrofni tozalash emas, xotirjamlik, munosib mehnat sharoti va unga zamin yaratish, tinch mahalla kabilarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, suhbata doshlarimiz ularning barchasi haqida so‘zlab berishga oshiqli. Biz ham ularni boricha qog‘ozga tushirdik.

Gulruh MO‘MINOVA.



Obodlik, tinchlik, ahillik bayrami

Bu yil Navro'z o'zgacha bir shukuhda, muborak Ramazon oyida nishonlanmoqda. Bayram oldidan umumxalq hasharining o'tkazilishi, joylarda obodonlashtirish va ko'kalamzor-lashtirish ishlarning bajarilishi ayni muddao bo'ldi.

Bu yil viloyatimizda 16-18-mart kunlari bo'lib o'tgan umumxalq hasharida 2123 ta boshlang'ich tashkilotlar ishtirot etdi. Joylarda 20,4 ming tup daraxt va gul ko'chatlari ekildi.

Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat kengashiga qarashli tu-man, shahar binolari, shuningdek, bolalarning dam olishi va sog'iomlashtirilishini tashkil etish depar-tamentiga qarashli oromgohlar joylashgan man-zillarda umumxalq hashari uyushqoqlik bilan o'tdi. Hasharda 278 nafr kasaba uyushma ishchi-xodimi ishtirot etdi.

Shuningdek, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Samarqand viloyati kengashi tomonidan "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida nuroniyalar kasaba uyushmalari ishchi-xodimlarga iftorlik qilib berildi.

Bu yil Navro'z bayramida 4 kunlik bayram ta'tili berilgan. Xalqimiz ushbu kunlar mamlakatimizdag'i qutlug' qadamjolarni ziyorat qilishlari, ulkan bonyodkorlik ishlarning amalga oshirishlari mumkin.

Ayni kunlarda viloyatimizning turli tashkilotlarda mehnat qilayotgan 55 nafr faol xodim kasaba uyushmalari tomonidan Xorazmga uch kunlik sayo-hatga yuborildi.

Navro'z ayyomi yurtimizga tinchlik-omonlik, baxt-saadat, qut-baraka olib kelsin. Barchamizning orzu-niyatlarimiz ushalsin, osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

I.RAHIMOV,

ta'lif va fan xodimlari


kasaba uyushmasi Respublika kengashining
viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchi.

Nobel mukofoti laureatining "astronomiya shahzodasi"ga maktubi

Buyuk qomusiy olim, "astronomiya shahzodasi" Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligi bu yil jahon hamjamiyati tomonidan keng nishonlanadi. Ushbu muhim voqeа arafasida "Samarkandiana" ensiklopedik loyihasiga dunyoning turli davlatlari tomonidan katta qiziqish bildirilmoqda.

Jumladan, shveysariyalik taniqli astrofizik olim, fizika bo'yicha Nobel mukofoti laureati Mishel Mayor Samarqand xalqaro texnologiya universiteti (SIUT) qoshida yangi tashkil etilgan "Inson. Madaniyat. Tinchlik" xalqaro ilmiy va o'quv markazi tomonidan o'tkazilishi re-jalashirilayotgan xuddi shu nomli xalqaro dasturda qatnashish taklifimizni mammuniyat bilan qabul qilib, ijobji javob berdi.

Professor Mishel Mayor o'z murojaatida shunday yozadidi: "Hurnatli Anatoliy! Bildirgan tilaklarin-giz uchun tashakkur! Bu xabarga shaxsan Ulug'bekka murojaat qilib yozgan "muktub"ni ilova qilaman! "Samarkandiana" ensiklopedik loyihasi muvaffaqiyatlidavom etmoqda, degan umiddaman va barchangizga ezzu tilaklarimni bildiraman!".



Samarqandga yuborilgan suratlar- dan birida shunday yozuvga ko'zimiz tushadi:

"Mening buyuk va mashhur ham-kasibim Mirzo Ulug'bek izidan. Mishel Mayor".

Jenevadan "astronomiya shahzodasi"ga yo'llangan maktubda quyida-gi fikrlari bildirilgan:

"Mirzo Ulug'bekka!
Sizning hukmronlik qilgan yil-laringizda Samarganda yaratilgan Pegasa yulduz turkumining tasviri naqadar go'zal! Osmounning mening qalbimga naqadar yaqin bo'igan bu hududida birinchi kashf etilgan ekzosayyora - 51 Pegasa joylashgan. Asrlar davomida biz osmonni o'rganishni ishtiyoq bilan

yaxshi ko'rgan Siz kabi buyuk ham-kasibimiz xotirasini qadrlab kelmo-qdamiz. Men Siz bilan suhbatlashishni va Siz ijod qilgan davlardan beri qancha yutuqlarga erishganimiz haqida Sizga aytib berishni juda xohlardim.

Mirzo Ulug'bek!

Koinnotni o'rganishimizga qo'shgan behisob hissangiz uchun sizga chek-siz ehtiromimni bildiraman!

**Mishel Mayor,
Jeneva universiteti
astronomiya professori,
fizika fanlari bo'yicha
Nobel mukofoti
laureati (2019).**

Mishel Mayor butun dunyoga dong'i ketgan mashhur olimlardan biri. U "Quyosh ortidagi dunyo kashfiyotchisi" va "yulduzlar ovchisi" nomlari bilan tanilgan.

Jeneva universitetining faxriy professori Mishel Mayor Xalqaro Astronomiya ittifoqining (MAC) galaktik tizimning tuzilishi va dinamikasi, Quyosh ortidagi sayyoralarini o'rganish maqsadida tuzilgan ham-jamiatga rahbarlik qilgan. Bundan tashqari, Yevropa janubiy observatoriyaning ilmiy-tennika qo'mitasi va astrofizika va astronomiya fanlari bo'yicha Shveysariya jamiyatini

rahbari vazifasida hamda Jeneva rasadixonasi direktori kabi qator nufuzli lavozimlari faoliyat yuritgan. Ko'plab xalqaro mukofotlar sohibi, dunyoning nufuzli akademikalari a'zosi hisoblanadi. Hatto bitta asteroidga uning (125076 Mishel-mayor) nomi berilgan.

1995-yilda professor o'zining aspirantlaridan biri Dide Quyeloz bilan hamkorlikda Quyosh tizimidan tashqaridagi birinchi sayyorani - Somon yo'li galaktikada Quyoshga o'xshash yulduzni aylanib yuruvchi 51 Pegasi b (51Peg b) ekzosayyorasini kashf etadi. Ekzosoayyoralar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan ushbu inqilobi kashfiyot uchun har ikkala olim Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

2022-yilda Samarqand xalqaro texnologiya universiteti tomonidan (SIUT) O'zbekiston Fanlar akademiyasi ishtirokida va Eriyell kompaniyalar guruhi ko'magida Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoni" astronomik asarining nodir nashri tayyorlandi va mazkur asar o'zbek, rus, ingliz va xitoy tillarida nashr etildi.

**Anatoliy IONESOV,
Samarqand xalqaro texnologiya
universiteti qoshida tashkil
etilgan "Inson. Madaniyat.
Tinchlik" xalqaro ilmiy va o'quv
markizi direktori,
Asila IBRAGIMOVA,
universitet matbuot kotibi.**

Oqdaryoning haq ovozi"

Oqdaryolik faxriy jurnalist Yo'ichi Muham-madiyevning navbatdagi risolasi shunday nomlardi. Unda feletonlar, hikoyalari, xoti-ralar, qatralar, ustozlar hamda hamkaslar e'tirofi jamlandi.

Kitobni mutolaa qilgan o'quvchi "Oqdaryo ovozi" gazetasida chop etilgan maqolalar bilan tanishib, yaqin o'tmishga sayohat qilish barobarida jurnalist kasbinining mashaqqatlarini bir dam bo'lsa da, anglaydi.

Xususan, kitob sahifasidan "Tahririyat qanday faoliyat yuritadi?", "Tug'ma jurnalist", "Qalam o'tkir muxbir", "Izlanuvchan ijodkor", "Juvonmarad jurnalist", "Yo'ldan tolмаган Yo'ichi", "Qishloqda charxlangan jurnalist", "Journalist deb atang meni, do'stlarim!", "Oogoh bo'ling: yulq'ich pulga", "O'zbekcha qo'shiqni yayerdan topaman", "Bosh muharriga oson demang", "Choyga chiqmaydigan bo'ldim" kabi bir-birdan qiziqarli maqolalarni o'qib zerikmaysiz.

Mazkur nashr nafaqat o'quvchilarga manzur bo'ladi, balki bo'lg'usi jurnalistlarga qo'llanma vazifasini o'taydi.



H.ELTOYEV.

Farzandingizga rasm chizib bermang!

Bolaligimda bog'chaga borishni juda-juda istaganman. Sababi, u yer-ga boradigan qo'shni bolalar tarbiyachi opalari yordamida rasm chizishni o'rganayotganini maqtashardi. Ammo ayrim sabablariga ko'ra bu istagim armonga aylangan. Ayam bilan dadam ishga ketganida menga buvum uyda tarbiyachilik qilardi. U kishining aytishicha, 3-4 yoshlarimda akamning ruch-kasi bilan devorga quyonning rasmini chizgan ekanman. Keyin buvum menga rangli qalam va rasm daftari sobit olib bergan. Katta daftarni bir zumda ertak kahramonlarining rasmilarini bilan to'ldirib tashlayvergan ekanman. Buvim esa rasm daftari va qalamlar olib berishdan charchamagan. Xullas, hali esimni tanib-tanimasimdan oq tasviriy san'atga mehrim boshqacha bo'lgan.

Maktabga qadam qo'yishim bilan sinifa eng a'luchi o'quvchi bo'lishga harakat qildim. Rasmni juda chiroyli chizmasak ham ustozimiz a'lo baholar qo'yaverardi. Ikkinci sinifa ham avvaliga hamma fanlardan 5 baho olardim. Keyinchalik tasviriy san'at faniдан dars beradigan ustozimiz menga 4 baho qo'yadigan bo'ldi. Shu bilan bir sinfoshimdan ortda qola boshladim. U uya vazifa uchun berilgan rasmani o'zi chizmasligini bilardim. Buni maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rta-sida tanlov o'tkazilgan paytda sezib qolgan-

man. O'sha tanlovda dugonam rasm chiza olmasligini,unga yordam berib yuborishimni iktimosi qilib qildi. Xullas, ikkimir uchun ham o'zim rasm chizganman. Qizig'ishundaki, tanlovda hakamlar hay'ati a'zolari uzoq o'ylanib, ikkimir ga ham birinchi o'rinni berishgan...

Ayam hamshira. Bo'sh vaqtlarida rasm chizib turadi. Chizgandayam juda chiroyli chizadi. Maktabda faqat tasviriy san'atdan ketma-ket 4 baho olaverGANimdan keyin ayamdan uyg'a vazifamni bajarishda yordam berishini iktimosi qildim. U hech qachon yordam

bermasligini, o'zim harakat qilaversam, bir kunmas bir kun albatta, 5 baho oladigan darajada rasm chizishni uddalashim mumkinligini aytdi. Ayam iltimosimni rad qilganini dadamga va buvimga ayib berdim. Har ikkisining ham beradigan topshiriqlarini hech qachon rad etmay-digan aman mening shu kichik bir iltimo-simni bajarmasligini aytdi. Xullas, foydas bo'imadi. Yig'lab-yig'lab, o'zim chizishga harakat qilaverdim.

Ayamning gapi rost ekan, ko'p mashq qilib, chiroyli chizishni o'rgandim. Yana 5 baho oladigan bo'ldim. Bu maqtan-ishmas, ammo rasm chizish bo'yicha maktabda birinchilikni o'ldan bermay kelganman. Bugungi kunda tasviriy san'at yo'nalihsida o'tkazilayotgan turli tanlovlardan qatnashib, yuqori natijalarni qo'lg'a kiritma boshladim. Ikkinci sinifa dars bergen tasviriy san'at ustozimiga har doim rahmat ayib kelaman. Agar u kishi menga 4 baho bo'lg'ich qamanida, haligacha rasm chizishni eplay olmay yurgan bo'lardim.

Malika AMRILLAYEVA,
Qo'shrabot tumani.

Yoshlar minbari

Olmonlarning ekologiyaga oid tajribasi

O'zbekiston Ekologiya partiyasi Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda chet davlatlarda ta'lif olayotgan yoshlar bilan ochiq mulqot o'tkazdi.

Berlin shahrida joylashgan Humboldt universiteti doktoranti Shohnazар Hazratqulov Olmoniyada tabiatiga munosabat, mamlakatimizda ekologik musaffolikni ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini oshirish borasida xorij tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

- Germaniyada ekologiya masalasiqa jiddiy e'tibor qaratiladi, - deydi Sh.Hazratqulov. - Maktabgacha ta'lif maskanlari, o'rta maktablarda ekologiya bilan bog'liq mashg'ulotlar o'tkazildi. Shu yo'l orqali yoshlarda ekologik madaniyat shakllantirilib, bolaligidan tabiatni e'zozlashga o'rgatiladi.

Har qanday daraxt qonun bilan himoyalangan, normati-huquqiy hujjatlar mavjud. Respublikaning qariyb barcha hududida daraxtlarning pasporti shakllantirilgan. Mobodo, bitta daraxt qolsa, mutaxassislar ishtirokida uning sabablarini o'rganiladi va uni ko'kartirishga harakat qilinadi.

O'zbekiston dunyodagi iqlimi quruq, issiq mamlakatlardan biri. Respublikamizda cho'ilanishning oldini olish, yashil iqlim yaratish uchun sharoitimizga mos, suvsizlikka chidamli daraxt ko'chatlari ekilishi lozim.

Tadbirda ekologik madaniyatni shakllantirish yuzasidan aniq takliflar o'rta ga tashlandi.

O'zbekiston ekologik partiyasi viloyat tashkiloti axborot xizmati.

Tabiiy mahsulot yetishtirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda eng dolzarb masalalaridan biri xalqning turmush darajasini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bo'lsa, bunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va cishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish asosiy manba hisoblanadi. Aholining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan lababning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etadi.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalihsida 2018-yilda global ochlik indeksida 119 mamlakat orasida 52-o'rinni egallab, 12,1 ko'rsatkich bilan "mo'tadi" darajaga erishdi. Biroq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoq qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti barqoroligiga erishish, kam daromadli oilaarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlari narxi va miqdori keskin o'zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

2021-yilda Prezidentimizning "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilingandi. Ushbu hujjatlar qabul qilingandan so'ng o'simliklar karantini va himoyasi xizmatlari yagona agentlikka birlashtirildi va sohaga katta e'tibor qaratildi. Bu esa agentlikning hududlardi boshqarma va bo'limlari ishida o'z aksini topdi. O'simliklar karantini va himoyasi viloyat boshqarmasida ham bu borada ko'zga ko'rinarli ishlari amalga oshirishdi.

Viloyatda o'tgan yili joylardagi fitosanitar nazorat davlat inspektori tomonidan 94230 hektar g'allazor, 23853 hektar bog', 30417 hektar tokzorda, 26987 hektar sabzavot, 1565 hektar poliz ekinida hamda 348 hektar issiqxonada kuzatuv nazorat ishlari o'tkazildi. Soha olim va mutaxassislar bilan qatlami yillik ikki pallali begona o'tlar, boshqoli begona o'tlar, "Zang" va boshqa kasalliklar, zararkunandalar tarqalishi bashorat qilingan. G'alla maydonlarda zararli organizmlar tarqalishining oldini olish maqsadida g'allaclik klas-terlari va fermer xo'jaliklari tomonidan kimyoviy vositalar zaxirasi yaratildi.

Viloyat tumanlarida 32 ta biolaboratoriya faoliyat yuritmoqda. Ularda qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi qo'llanila maslahatlari berib bormoqda.

Sh.O'RAZOV,

O'simliklar karantini va himoyasi viloyat boshqarmasi boshlig'i



Oshirilgan soliqlar, tugatilgan imtiyozlar

Bu yil soliq ma'murchiligidan nimalar o'zgardi?

Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Soliq kodeksining 17-moddasida ko'rsatilgan yig'imlarning turlariga **yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan avtovoztransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanish huquqi uchun yig'im kiritildi.**

Unga ko'ra, 2024-yilda mazkur turdagi transport vositalari uchun yig'imlarni stavkalari quydigicha:

- yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan 25 tonnagacha bo'lgan N2, N3 toifasidagi avtovoztransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari, ya'n 1 million 700 ming so'm;

- yuk ko'tarish quvvati 25 tonnadan 35 tonnagacha bo'lgan N2, N3 toifasidagi avtovoztransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari, ya'n 2 million 720 ming;

- yuk ko'tarish quvvati 35 tonna va undan yuqori bo'lgan N2, N3 toifasidagi avtovoztransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari, ya'n 3 million 400 ming so'm qilib belgilandi.

Soliq kodeksining 22-, 84-, 88-, 104-, 105-, 194-, 195-, 217-, 359-moddalarida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha saqlash, da'vo qilish va ariza berish muddatlari **besh yildan uch yilga qisqartirildi**.

Soliq kodeksining 100-moddasida kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlarning summalarini soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy mobaynang teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berildi.

Kodeksning 138-moddasi quydagi tahrirda ikkinchi qism bilan to'ldirildi:

Kamerol soliq tekshiruvida quydagi soliq nazorati harakatlarini o'tkazish taqiqlandi (bundan qo'shilgan qiymat soliq'i summasi o'mini qoplash (qaytarish) maqsadida o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvi mustasno):

- 1) soliq to'lovchining hududiga kirish;

- 2) soliq to'lovchining hududini va binolarini ko'zdan kechirish;

- 3) soliq to'lovchidan hujjalarni talab qilib olish va uni chaqiritish;

- 4) soliq to'lovchining hujjalari va buyumlarini olib qo'yish.

Mazkur moddaning o'n birinchi va o'n ikkinchi qismidan "Kamerol soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to'lovchidan hisobga olish hujjalarni, taqqim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjalariiga doir tushuntirishlarni, shuningdek, soliq hamda yig'imlarni hisob-

lab chiqarish va to'lash bilan bog'liq boshqa axborotni so'rab olishi mumkin" hamda "So'ralgan hujjalarni va tushuntirishlarni soliq organiga tegishli so'rov olingan kundan e'tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak", degan qismlar chiqarib tashlandi.

Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq, chet davlatlarda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tub, faoliyatini O'zbekistonda amalga oshiruchi jismoniy shaxslardan ham qo'shilgan qiymat soliq'i to'lovchisi bo'ldi.

Kodeksning 243-moddasidan 11-, 12-, 13-bandlar, ya'ni tibbiy xizmatlar, veterinariya xizmatlari va dori vositalarini solish bo'yicha aylanmalar chiqarib tashlandi. Bunda "Ijtimoiy reyestr"ga kiritilgan fuqarolarga QQS summasi "keshbek" sifatida qaytarish mexanizmi yaratilishi ko'zda tutilgan.

Qo'shilgan qiymat soliq'idan ozod qilinadigan import qilinadigan mahsulotlar ro'yxatidan dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek, ularni ishlabi chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashiyorlar chiqarib tashlandi.

2024-yil 1-yanvardan tamaki mahsulotlari aksiz soliq'i stavkasi 12 foizga, etil spirti ishlab chiqarish aksiz soliq'i stavkasi 2 barobarga oshirildi.

2024-yil 1-apreldan esa neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari o'rtacha 12 foizga indeksatsiya qilinishi belgilangan. Shuningdek, mazkur sanadan boshlab tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi va xushbo'ylashtiruvchi qo'shimchalar bo'lgan mineral va gazlan-gan ichimliklarga 1 litr uchun 500 so'm, shuningdek, energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarga 1 litr uchun 2000 so'm miqdorida aksiz soliq'i joriy etilmoqda.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun **suv soliq'i stavkalari o'rtacha 30 foizga indeksatsiya qilindi**. Bunda eng ko'p soliq alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalilanidigan suv hajmi uchun (1 kub metrga 34160 so'm) va avtovoztransport vositalarini yuvish uchun ishlataligan suv uchun (1 kub metrga 2700 so'm) belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, qo'shimcha daromad olayotgan budjet tashkilotlari **2027-yil 1-yanvargacha** davlat budjetiga undiriladigan soliqlar, respublika yo'llamg'armasiga yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilindi. Mazkur imtiyoz 2024-yilning 1-yanvariga qadar edi.

Maktab va maktabgacha ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ish haqi vaunga tenglashtirilgan to'lovlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi **2030-yil 1-yanvarga qadar 1 foiz miqdorida** belgilandi.

Mazkur moddaning o'n birinchi va o'n ikkinchi qismidan "Kamerol soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to'lovchidan hisobga olish hujjalarni, taqqim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjalariiga doir tushuntirishlarni, shuningdek, soliq hamda yig'imlarni hisob-

lab chiqarish va to'lash bilan bog'liq boshqa axborotni so'rab olishi mumkin" hamda "So'ralgan hujjalarni va tushuntirishlarni soliq organiga tegishli so'rov olingan kundan e'tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak", degan qismlar chiqarib tashlandi.

Ma'lumotnomani olish muddati 5 ish kuni va ushbu xizmat bepul ko'rsatiladi.

- YONG'IN SODIR BO'LGANLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTNOMANI QAYERDAN VA QANCHА MUDDATDA OLİSH MUMKИН?

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, ushbu ma'lumotnomani jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olsa bo'ladi.

Ma'lumotnomani olish muddati 5 ish kuni va ushbu xizmat bepul ko'rsatiladi.

- ELEKTRON RAQAMLI IMZO OLMOQCHI EDIM...

Elektron raqamli imzo (ERI) kalitini olish uchun Davlat xizmatlari markaziga kelgan holda yoki YIDXP (my.gov.uz) orqali olish mumkin. Onlayn tarzda murojaat etilganda, pasport yoki ID-kartaning nusxasi va asosiy sahifasi bilan "selfi" usulida olingan fotosurat ilova qilinadi. ERIning paroli mobil telefon raqamiga "SMS" xabar shaklida yuboriladi.

ERI kalitini olish uchun yuridik shaxslar va tadbirkorlik subjektlaridan BHMning 10 foizi, jismoniy shaxslardan BHMning 7 foizi miqdorida yig'im undiriladi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" ATda ro'yxatga olingan va I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foizi miqdorida chegirma mavjud.

ERIning amal qilish muddati 2 yil.

Davlat xizmatlari bo'yicha savolningiz bormi?

Quyida shu kunlarda sohaga oid eng ko'p berilayotgan savollarga javoblarni oldik.

- FUQAROLARGA YOSHGA DOIR PENSIYANI PROAKTIV SHAKLDA TAYINLASH QANDAY BO'LADI?

Prezidentimizning 2023-yil 31-oktobrdagi "Aholiqa pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorigi bilan 2025-yil 1-martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiya yalarini alohida murojaat talab etmagan holda, ya'n proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etiladi.

Bunda fuqarolar pensiya yoshiga yetganida davlat tashkilotiga murojaat qilishi shart bo'lmaydi. Proaktiv davlat xizmatida yoshga doir pensiya davlat organlarining tashabbusi asosida tayinlanadi.

- YONG'IN SODIR BO'LGANLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTNOMANI QAYERDAN VA QANCHА MUDDATDA OLİSH MUMKИН?

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, ushbu ma'lumotnomani jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olsa bo'ladi.

Ma'lumotnomani olish muddati 5 ish kuni va ushbu xizmat bepul ko'rsatiladi.

- ELEKTRON RAQAMLI IMZO OLMOQCHI EDIM...

Elektron raqamli imzo (ERI) kalitini olish uchun Davlat xizmatlari markaziga kelgan holda yoki YIDXP (my.gov.uz) orqali olish mumkin. Onlayn tarzda murojaat etilganda, pasport yoki ID-kartaning nusxasi va asosiy sahifasi bilan "selfi" usulida olingan fotosurat ilova qilinadi. ERIning paroli mobil telefon raqamiga "SMS" xabar shaklida yuboriladi.

ERI kalitini olish uchun yuridik shaxslar va tadbirkorlik subjektlaridan BHMning 10 foizi, jismoniy shaxslardan BHMning 7 foizi miqdorida yig'im undiriladi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" ATda ro'yxatga olingan va I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foizi miqdorida chegirma mavjud.

ERIning amal qilish muddati 2 yil.

2024-yil 21-mart,
payshanba

Kasanachilik tashkil etgan tadbirkorlarga subsidiya ajratiladi

Hunarmandman. O'zimdagи mavjud bitta tikuv mashinasida kiyim-kechak tikib, ro'zg'orga besh-to'rt so'm qo'shimcha mablag' kiritaman. Yaqinda Samarqand shahrida tikuvchilik yo'nalishida faoliyat yuritaygan tadbirkor bilan og'zaki kelishuvga erishdim. Men unga kasanachi sifatida o'z uyimda kiyimlarning ma'lum qismini tayyorlab bersam, shartnomada asosida xizmat haqi berarkan.

Ayting-chi, tadbirkorlik korxonasiga kasanachi sifatida shartnomada ishga o'tsam, biror asbob-uskuna va xomashyo xarid qilishim uchun subsidiya olishim mumkinmi?

Ushbu savolga

"Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Umid Hakimov javob berdi:

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-iyulda O'zbekiston Respublikasi Kambag' allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, mahallalarda kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlarga subsidiya ajratish tartibi belgilangan.

Yuqorida qaror asosida "Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan mahallalarda kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya ajratish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Nizomga muvofiq, kasanachilikni tashkil qilgan tadbirkorlarga Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lariidan quyidagi miqdorda subsidiyalar ajratiladi:

har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o'rtaча daromadi miqdorida;

2025-yil 1-yanvarga qadar kasanachilik bilan shug'ullanayotgan ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek, "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" yoki Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan fuqarolarga asbob-uskunalar va xomashyo xarid qilish bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun, biroq har bir kasanachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha;

kasanachilik yoki hunarmandchilik asosida uy sharoitida ishlayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joyini moslashtirish uchun har bir moslashtirilayotgan ish joyi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravarigacha;

kasanachilik dastlabki 3 oy davomidagi daromadi haqidagi ma'lumot haqqoniyligi tasdiqlanmasa.

Murojaat rad etilganida 1 kunda bu haqda murojaatchiga xabar beriladi.

Subsidiya ajratish quydagi holatlarda rad etilishi mumkin:

Nargiza SODIQOVA,
Jomboy tumani.

- kasanachilarni kasb-hunarga o'qitishga sarflangan xarajatlarni uch oygacha bo'lgan muddatda qoplash uchun, biroq har bir kasanachi uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarigacha;

- nodavlat ta'lif tashkilotlariida kasanachilik yo'nalishda o'quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchiga kasbga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarining 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan oshmagan miqdorda.

Subsidiya olish uchun hokim yordamchisi tavsiysi asosida mahalliy mehnat organiga yoki YAIDXP (my.gov.uz) portalni orqali murojaat qilishi mumkin.

Murojaatda kasanachi ma'lumotlari, subsidiya to'lab berilishini lozim bo'lgan hisobvoraq va manzili ko'rsatiladi. Murojaat 3 ish kunida ko'rib chiqiladi.

Subsidiya ajratish quydagi holatlarda rad etilishi mumkin:

- hujatlar to'liq taqdim qilinmaganida;

- kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi Yagona elektron shartnomalar portalida ro'yxatdan o'tkazilganida;

- kasanachining dastlabki 3 oy davomidagi daromadi haqidagi ma

SAMARQAND VILOYATI AVTOMOBIL YO'LLARI BOSH BOSHQARMASI JAMOASI

SAMARQAND VILOYATI
AVTOMOBIL YO'LLARI HUDDIY
BOSHQARMASI

*barcha yurtdoshlarimizni
Navro'z bayrami
bilan tabriklaydi.*



O'ZBEKISTON KASABA
UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING
SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

mehnatkash xalqimizni

NAVRO'Z

bilan chin dildan qutlaydi.



UZTELECOM

AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
SAMARQAND FILIALI JAMOASI



*Barcha hamyurtlarimizni
yangilanish va yasharish bayrami –
NAVRO'ZI OLAM
bilan tabriklaydi.*



**O'ZBEKISTON DAVLAT MUASSASALARI
VA JAMOAT XIZMATI XODIMLARI KASABA
UYUSHMASI SAMARQAND VILOYATI KENGASHI**

*aziz yurtdoshlarimiz va
kasaba uyushmalari a'zolarini
Sharqona yangi yil –
NAVRON'Z BAYRAMI
bilan muborakbos etadi!*



"URGUT SAVDO KOMPLEksi"
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

*jannatmakon yurlimiz fugarolari va
hamkasblarini
Navro'zi olam
bilan qutlaydi.*



Xizmatlar litsenziyalangan.

"TEMIRYO'L DEHQON BOZORI"
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

viloyatimiz ahlini
NA VRON'Z
bilan tabriklaydi.



Xizmatlar litsenziyalangan.

HURMATLI YURTDOSHLAR!

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabi'i va texnolog xususiyatlari favqulodda vaziyatlar, jumladan, yong'inalar, aholining sifatasi oziq-oqgat mahsulotlari dan zaharlanishi hamda Qrim-Kongo gemorrak istmasi kasalliklarining oldini olishiga qaratilgan targ'ibot fuqaro muhofazasi tadbirlarini kuchaytirish maqsadida joriy yilning 15-martidan 15-aprenga qadar respublikamiz huddida "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" o'tkazilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olishiga qaratilgan ushuu tadbirlerda faol ishtirok eting!

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Tuychiyev Sindraga (2023-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Yevdokimov Aleksey Ivanovichga (2009-yil 13-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Daniyarova Begimoya (2018-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Norquyev Abdukaxorga (2015-yil 24-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Shaxobiddinov

* * *
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurod Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Abdusakimova Sayyoraga (2021-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurod Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Vaxobov Murtazoga (1998-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Musinova Mumina Kurbananova (2021-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Azimbayev Kamilga (2021-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Fayziyeva Gulnora Xalimovnaga (2012-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Shaxobiddinov

Fatimaga (2009-yil 4-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2017-yil 9-oktyabrda O'zbekiston "Mahalla" xayriy jamaot fondining Samarqand shahar bo'linmasiga (STIR: 204159663) berigan 291-sonli nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxitidan o'tkazilganda to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "TRAVELCUBE ASIA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304528288) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "DIYOR PRESTIJ MARKET" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306126423) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot institutidan Tursunov Sanjar Esankulovich nomiga 2019-yil 30-martda berilgan qayd raqami 2513, MO 2324 raqamli va 2019-yil noyabr oyida berilgan qayd raqami 5365, MO 4889 raqamli sertifikatlar yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "SABRINA SAYOXATCHI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 308785917) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamiyalari kasaba uyushmalari tizimida mehnat qilgan

Majidxon USMONOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi ushuu tarmoq tizimi kasaba uyushma faoliyati rivojiga munosabatli hissa qo'shgan fidoyi inson Majidxon USMONOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

NAVRO'Z

haqida nima bilamiz?

Navro'z - qadim bayamlardan bo'lib, aynan kun va tun teng bo'lgan 21-mart kuni nishonlanadi. U koinot va tabiat qonuniyatlari, ya'ni Quyoshning hamal burjiga kiriishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog'liqligi uchun, uyg'onish bayrami sifatida nishonlanadi. Navro'zning ildizi ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkazilgan bahor bayamlariga borib taqaladi.



Olimlar fikriga ko'ra, uning shakllanishi zardushtiylik dinining paydo bo'lishigacha davom etgan davrni o'z ichiga olib, Xitoydan O'rta yer dengizgacha bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjalarni ham to'xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"-ga ko'ra, bahor qaytishi yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini anglatgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar zardushtiyarning e'tiqodida Navro'z bayrami muhim o'rinni tutganligini ko'rsatdi. Xusus, Samarcanddagi Kofirqal'a yodgorligidan zardushtiyarning hosildorlik va suv ilohi hisoblangan Nana aks etgan yog'och panning topilishi fikrimiz dalilidir. Arxeolog olim A.Berdimurodovning ta'kidlashicha, yog'och panno Sug'd hukmdorlarining shahar tashqarisidagi saroyida joylashgan bo'lib, u joylashgan xona diniy va dunyoviy marosimlarini, jumladan, Navro'z va Mehrjon bayramlarini nishonlash uchun xizmat qilgan.

Firdavsiyini "Shohnoma"sida Navro'z bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o'rgatadi, temir eritib, qurol yasaydi, ip yigirib, kiyim to'qidi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog' bunyod qiladi. Nihoyat ishlari gurkirab, meva berganda, taxt yasatib, unda osmonga ko'tariladi. Ushbu afsonaga ko'ra, xuddi shu kundan boshlab Navro'z nishonlangan. Bayram haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida, Umar Hayyoming "Navro'znama" asarida ham uchraydi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonug lug'otit-turk" asarida Navro'zga oid ma'lumotlar keltirilgan. Tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy (899-959) o'zining "Buxoro tarixi" asarida Navro'z kuni Siyovush qabri boshida odamlar jonliq so'yishlarini va bunga uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tganini yozgan.

Temuiylar davrida Navro'z eng ulug' va eng aziz, insonlarga cheksiz quvonch ulashuvchi bayram sifatida nishonlangan. Alisher Navoiy ham o'z asarlarida "Har tuning Qadr o'lubon, har kuning o'Isun Navro'z", deb bejiz bu kуни alohida yod etmagan.

Bahor va mehnat bayamining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchrab, shu kung largacha yetib kelgan. Qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayamining paydo bo'lishi ajoddarimizning bahor fasli va ko'klamgi dala ishlaringin boshlanishiga aloqador udumlariga bog'lanadi. Navro'z 21-martdan 22-martga o'tar kechasi "Qozon to'la" udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko'pchilik bo'lib sumalak va halim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro'z "qozon to'ladigan", ya'ni qut - baraka tantana qiladigan xalq bayrami hisoblangan.

Navro'zga bag'ishlangan xalq qo'shiqlari dan birida shunday deyiladi:

Ulus kuni qozon to'Isa,
Yil bo'y siyt mo'l bo'lar.
Ulug'lardan olqish olsang,
U yil o'ljang mo'l bo'lar!

Asrlar o'tishi bilan turli xalqlarda Navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga mostashgan. Tarihiy manbalarga ko'ra, bu kunni bayram qilish rasman ahamoniylar davridan boshlangan va O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston xalqlarida eng katta bayamlardan biri hisoblangan. Bu o'lkalarga islam dini yoyilganidan so'ng Navro'z bayrami man qilingan, ammo xalq o'z sevgan bayramini nishonlashda davom etgan. O'rta Osiyo va Eron xalqlari arab xalifaligi hukmonligidan ozod bo'lgan davrdan boshlab, Navro'z bayramini o'tkazish yana rasmiy tus olgan.

Hozirgacha Markazi Osiyoda Navro'zning rasmiy va norasmiy tarzda nishonlanishi xususida maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Taniqli olim A.Malikovning tadqiqotida Buxoro va Samarcandda Navro'zning nishonlanishi, islam dinining yoyilishi va ruslar istilosidan keyingi transformatsiya jarayonlariga to'xtalib, O'rta Osiyonning madaniy jihatdan turli xil bo'lgan musulmon aholisi g'oyalarni o'zida mujassam etgan bayram sifatida ta'riflagan.

O'zbekiston hududida yashagan xalqlar bu kunni yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan kutib olganlar. Bir necha kun ilgari tayyorgarlik ishlari boshlangan. Bug'doy undirilib, uning maysasidan sumalak tayyorlangan. O'tdan chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar pishirilgan, otchopar, uloq, kurash singari xalq o'yinlari, sayillar o'tkazilgan, bahor, ko'klam haqida qo'shiqlar kuylangan. Bayramning birinchi kuni qishloq joylarida bolalar to'p-to'p bo'lib xonardonlar eshigi oldida Navro'zga bag'ishlangan qo'shiqlar aytishgan. Xonodon egasi ularni sovg'a-salom va yeguliklar bilan siyalgan. Bu udum hozir ham Samarcand va Jizzax viloyatlarining ayrim qishloqlarida saqlanib qolgan.

XX asrning 80-yillarda, sovet tuzumining so'nggi yillarda mazkur bayram asossiz ravishda diniy bayram va marosimlar qatorida man qilindi. Markazi Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, boshqa qadriyatlar qatorida Navro'z bayrami ham tiklandi. Hozir yurtimizda ham Navro'z - umumxalq bayrami sifatida nishonlanib, 21-mart dam olish kuni deb e'lon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsert-tomoshalar uyuştilari. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro'zga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi, sumalak, halim va boshqa tansiq taomlar pishiriladi. Navro'z kunlari hokimliklari, mahallalarning faollari, xayr-ehson tashkilotlari - mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriyari, nogironlar, yolg'iz keksalar holidan xabar olib, ularni qutlab, sovg'a-salomlar ularashadi.

Yurtimiz tarixi davomida ko'plab hukmon sulolalar, dinlar va mafkuralar almashgan bo'lsa-da, biroq xalqimiz Navro'z bayramini hamon nishonlab kelmoqda. Shu sababli ham u bilan bog'liq folklor - xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlari, afsona va rivoyat, marosimlarni to'plab, alohida majmua holda nashr ettirish qadim udumlarimizni saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Mahmudxon YUNUSOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Xitoydan O'rta yer dengizgacha bo'lgan
hudud xalqlarining sevimli bayrami

Zarafshon

Bahor ilhomlari



*Navro'zda
yo'qla*

Firdavs yo'lining ochilgan kuni,
Ming turli chechaklar sochilgan kuni,
Ko'ngildan tugunlar yechilgan kuni,
Munisang onangni Navro'zda yo'qla.

Olis - olislardan qaytdi turnalar,
Arqon, gilam bo'lar payti turnalar,
Bizga sog'inchlarni aytdi turnalar,
Otang kamtarginangni Navro'zda yo'qla.

Halollik - halovatda najot kaliti,
Tonggi tilovatda najot kaliti,
Xayru saxovatda najot kaliti,
Yo'qla, ko'ngli kamni Navro'zda yo'qla.



Meningdek jamoli navolar,
qiladur fig' on ila nolalar,
Demakim, shafaq falaq avjida,
aning hasratida qir oshadur.
Kechalar xayolida uyg'onib,
chala jon kabi to'lg'onib,
Chekib ohlar aning ishqida,
Nazaramda xuni quyoshidur.

Dili jonima necha ming azob,
g'ami hijrida chekib iztirob.
Karam o'rniiga qiladur itob,
menga rahmsiz dili toshidur.
Labining sharobin ichgan el,
bila olmas o'zini oyu yil.
Emas ul bahorda mavj sel -
ki bu oshiq ahlining yoshidur.

VOLA
(Eshonxo'ja MIRINOYATUL
o'g'li).

* * *
Tog' cho'qqisi ko'p baland,
Chiqmoqqa bir yo'lim yo'q.
Lek umidim o'Imagan -
Nek tilakka o'lim yo'q.

Dardim aysam daryoga,
Mavjlarida timim yo'q.
Bilmam, intilar qayga,
Nek tilakka o'lim yo'q.

Sahrolarga yuzlansam,
Otashi bor, orom yo'q.
Yasanmoqqa yastanar,
Nek tilakka o'lim yo'q.
Na sahro, daryoman lek,
Orzusiz bir kunim yo'q.
Bilgan haqiqatim shu:
Orzuga hech o'lim yo'q!
**Suyundiq Mustafa
NURATOIY.**

Bahor, juri'atingga qilaman havas...

MAYSAJON

Bir o'pay, deb uzib qo'yibman seni,
Ko'zlarimga chizib qo'yibman seni,
O'zim bilmay ezib qo'yibman seni,
Qadamimni qayga qo'yay, maysajon,
Ucholmasam, nima qilay, maysajon.

Nozikliging o'tlar solar dilimga,
So'z ustiga so'zlar kelar tilimga,
Sen yur, desang, ketaveray o'limga,
Siringni ayt, men ham bilay, maysajon,
Ucholmasam, nima qilay maysajon.

Tong saharden ko'zingda yosh nimasi,
Atrofingni qurshagan tosh nimasi,
Voh, nozigm, etilgan bosh nimasi,
Dardlaringga qalqon bo'lay, maysajon,
Ucholmasam, nima qilay maysajon.

Ildizingni o'pib yotar chashmalar,
Maftun bo'lib, ko'kda quyosh tamshanar,
Bo'limqo bo'lar bari senga oshnolar,
Oshiqlarining talay-talay, maysajon,
Tovoningni kimga to'lay, maysajon,
Ucholmasam, nima qilay maysajon.

Lolalar, sizlarni kuttirib qo'ydim,
Ko'nglimni olay deb uzildingizmi,
Yana ko'nglim kabi ezildingizmi,
Tashrifimni poylab tizildingizmi,
Kechiring, sizlarni kuttirib qo'ydim.

Hijronidan qandayin o'tib turibsiz,
Shuncha g'ammni ichga yutib turibsiz,
Nahot men g'aribni kutib turibsiz,
Kechiring, sizlarni kuttirib qo'ydim.

Uqdim sizdan Sadoqatning darsini,
Qandoq tikay qon dilingiz darzini,

Kim tinglaydi kutganlarning arzini,
Kechiring, sizlarni kuttirib qo'ydim.

Sizlardi uzilgan gulga o'xshayman,
Zanjirband qilingan qulga o'xshayman,

Sizni yo'ilganni kutib yashayman,
Kechiring, sizlarni kuttirib qo'ydim.

Qirg'oqlarga sig'may toshar suv,
Shiviraydi yashil yaproqlar.

Turnalarning qaytg'anin ko'rib,
Vujudimga kirar titroqlar.

Karaming mo'l, qodir ollohim,
Maysa ekding hatto toshgacha.

Yashash darsin o'tarsan balkim,
Bahoringda keksa, yoshgacha.

Ufqalarga yetsa qulochim,
Lolalarini bag'rimga bossam.

Kapalakning qanotlariga
Yonib turgan dilimini ossam.

Bahoring gul quchoqlarida
Tirilgim, ham o'lgim keladi.

O'zbekiston, onam, bag'ringda,
Ming bahorlar qolqim keladi.

Xosiyat BOBOMURODOVA,
**O'zbekistonda xizmat ko'satgan
madaniyat xodimi.**



BAHOR

Buncha nozik, mitti g'unchalar,
Qanday qilib ochilar, kular?
Balki uning jasoratini
To'lg'oq tutgan onalar bilar.

Qirg'oqlarga sig'may toshar suv,
Shiviraydi yashil yaproqlar.

Turnalarning qaytg'anin ko'rib,
Vujudimga kirar titroqlar.

Karaming mo'l, qodir ollohim,
Maysa ekding hatto toshgacha.

Yashash darsin o'tarsan balkim,
Bahoringda keksa, yoshgacha.

Ufqalarga yetsa qulochim,
Lolalarini bag'rimga bossam.

Kapalakning qanotlariga
Yonib turgan dilimini ossam.

Bahoring gul quchoqlarida
Tirilgim, ham o'lgim keladi.

O'zbekiston, onam, bag'ringda,
Ming bahorlar qolqim keladi.

Xosiyat BOBOMURODOVA,
**O'zbekistonda xizmat ko'satgan
madaniyat xodimi.**

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 26-mart, seshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.


Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 710 nusxada chop etildi. Buyurtma 159. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqishi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56